ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026/ № 1. 1-2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Yo'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 12.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 12.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

PARDAYEV AZAMAT BAXRONOVICH
So‘zning lingvistik tabiati xususida 7

HAMIDOVA MUHAYYOXON OBIDOVNA
Shukur Xolmirzayev nasrida milliy mentalitetning badiiy talqini 11

ABDURAXMONOV XUDOYNAZAR ABDIRAYIMOVICH
Mavhum otlarning kognitiv-semantik va diskursiv xususiyatlari:
zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari asosida tahlil 16

ASADOV TO‘LQIN HAMROYEVICH
Predmet-belgi ma’noli ayrim morfologik oraliq so‘zlarning qiyosiy-tarixiy tavsifi 22

G‘AYBULLAYEVA DILDORA FAYZULLA QIZI
O‘zbek tilidagi insonning fizik xususiyatlarini
ifodalovchi frazeonimlarning semantik-stilistik tahlili 26

NASHIROVA SHAXNOZA BURIYEVNA
Ikki tilli lug‘atlar: nazariy asoslar va tarixiy yondashuv 29

NORKUZIYEVA DILDORA
Til tizimiga kiritilgan zoonim va zoomorfizmlarning
qiyosiy tipologik tadqiqotlardagi tahlili 33

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Epitet – badiiy matnni obrazli ifodalovchi vosita 38

AVEZOVA GULNOZA KAMILOVNA
Komil Avazning nasriy asarlarida dialektizmlarning qo‘llanilishi
(«Sozanda» romani misolida) 41

AMONOVA ZAMIRA
Nemis va o‘zbek tillarida destruksiyani ifodalovchi
fe’llarning metaforik qo‘llanilishi 44

NE’MATOVA O‘G‘ILOY AKRAM QIZI
«Maxzan ul-asror” dostonining badiiy-tasviriy
vositalari va uslubiy xususiyatlari 53

TUROBOVA MATLUBA RAXMATULLAYEVNA
Sun’iy intellekt tizimlarida o‘zbek tili leksikografik bazasini
shakllantirishning innovatsion usullari 56

KO‘CHIYEVA SHABNAM ISOMIDDIN QIZI
Tilshunoslikda disleksiya va disgrafiyaning
neyrolingvistik va psixolingvistik tadqiqi masalalari 60

OZADOVA MA’MURA ERGASHEVNA
Xorazm xalq qo‘shiqlari tilidagi manglay leksemasining lingvokulturologik va
lingvopoetik xususiyatlariga doir 63

МУНДАРИЖА

ALLAQULOVA SADOQAT AXMAT QIZI
O‘zbek tilining umumiy izohli lug‘atlarida etnoleksemalar berilishining qiyosiy tahlili 65

O‘RAZOV ALISHER DONIYOROVICH
O‘zbek tilida leksemaning semantik tabiati 68

JUMAYEVA KUMUSH TURSUNALIYEVNA
O‘zbek tili o‘zlashma qatlam somatik lesemalarida leksik tipologiya 72

MURODQULOVA IRODA SHAROFIDDINOVNA
Semurg‘ obrazining lingvomadaniy talqini (o‘zbek xalq dostonlari misolida) 76

ADABIYOTSHUNOSLIK

АСРОРОВ АКБАР, БОЛТАЕВ МАРДОН
Шоҳона сатрлар соҳиби – Султон Убайдий 80

SAMATOV SHOMAT, XO‘JANOVA OZODA
Buyuk shoir xotirasiga munosib haykal 85

ABDULLAYEV RAMAZON
Composing tatabbu‘ poetry in the time of Mu‘izzī and after him 88

JEPBAROWA SAÝAT KURBANMIRATOWNA,
EGENMURADOV ARZUV ANNAMIRATOVICH
Magtymguly Pyragynyň döredijilik äleminde möwlana Lutfynyň edebi poetik täsiri 93

ABDUXALIQOVA HILOLA G‘ULOM QIZI
XVIII–XIX asrlar o‘zbek dostonlarida tasavvufiy talqinlar 97

PAYG‘AMOVA SHIRIN JAKBARALI QIZI
Analitik folklorizmlarning poetik xususiyatlari 100

JAVLIYEV POYONBEK SHAVKAT O‘G‘LI
Usmon Azim nasrida lirik ohang 103

FERUZA RASULOVNA RASHIDOVA
The depiction of internal monologue as a form of artistic psychologism
in the novels of the Bronte sisters 106

TA’LIM

MASHARIPOVA NARGIZA OTAXONOVNA,
BAXRAMOVA MALIKA MUZAFFAROVNA
Sun’iy intellektli o‘yin yordamida inglizcha so‘z boyligini oshirish
(o‘zbek madaniyati asosida) 109

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O'ZBEK TILINING UMUMIY IZOHLI LUG'ATLARIDA ETNOLEKSEMALAR BERILISHINING QIYOSIY TAHLILI

Allaqulova Sadoqat Axmat qizi,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
magistratura bo'limi o'zbek tili va adabiyoti
mutaxassisligi magistranti

O'zbek tili leksikografiyasi so'nggi yillarda milliy tilshunoslikning eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biri sifatida salmoqli yutuqlarga erishdi. Xalqimizning turmush tarzi, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotiga daxldor bo'lgan ko'plab terminologik qatlamlar lingvistik tadqiq qilinishi natijasida boy leksikografik manbalar shakllandi. Bu boradagi amaliy ishlarning eng yirik namunasi sifatida ikki va besh jildli «O'zbek tilining izohli lug'ati»ni keltirish mumkin. Ta'kidlash joizki, tilshunoslikning hech bir sohasi insoniyat sivilizatsiyasi va xalqning etnomadaniy turmush tarzi haqida lug'atchalik to'liq va tizimli ma'lumot bera olmaydi. Til jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida xalq hayoti va madaniyati bilan uzviy bog'langan holda, etnosning moddiy, ma'naviy hamda axloqiy qarashlarini o'zida aks ettiruvchi ko'zgudir. Shu bois ham ilm-fan shakllangan deyarli barcha davrlarda lug'at tuzishga bo'lgan ehtiyoj yuqori bo'lib kelgan[1].

O'tgan yuz yillik davomida ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning transformatsiyaga uchrashi, fan-texnika taraqqiyoti va global integratsiya jarayonlari o'zbek tili leksik qatlamida ham jiddiy o'zgarishlarni keltirib chiqardi. O'zbek tili o'zining boy va xilma-xil lug'at tarkibi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, milliy urf-odatlar, qadimiy yashash tarzi hamda boshqa xalqlar bilan bo'lgan tarixiy-madaniy aloqalarni ifodalovchi etnoeksemalar leksikonimizda markaziy o'rinni egallaydi. Etnoeksemalar nafaqat so'z, balki millatning o'zligini anglatuvchi lingvokulturologik kodlardir. Tilning rivojlanish jarayonida uning lug'at tarkibi boshqa sathlarga qaraganda tashqi ta'sirlarga eng ta'sirchan va o'zgaruvchan qatlam hisoblanadi. Bu o'zgarishlar faqatgina miqdoriy ko'rsatkichlar bilan cheklanmay, sifat jihatdan ham yangi bosqichga ko'tarilib bormoqda. Leksikadagi taraqiyot jarayonida yangi lug'aviy birliklarning paydo bo'lishi, ayrimlarining iste'moldan chiqishi (arxaizatsiya) yoki so'zlarning yangi semantik qirralar kasb etishi tabiiy holatdir. Shu nuqtai nazardan, o'zbek tilining umumiy izohli lug'atlarida etnoeksemalarning berilishi va ularning izohlanish prinsiplarini qiyosiy tahlil qilish, tilimizdagi milliy-madaniy o'ziga xosliklarning davriy o'zgarishini kuzatish hamda leksikografik mahoratni baholash imkonini beradi.

Ushbu tadqiqotda o'zbek leksikografiyasining ikki muhim bosqichini ifodalovchi 1981-yilda nashr etilgan ikki jildli hamda 2006-2008-yillarda chop etilgan besh jildli «O'zbek tilining izohli lug'ati» manba sifatida olindi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tarixiy, statistik tahlil hamda leksikografik interpretatsiya metodlaridan foydalanildi. Metodologiyaning asosi sifatida lug'atlardagi so'zliklarning miqdoriy ko'rsatkichlarini solishtirish va ulardagi etnografik belgilarga (metatillarga) tayanish belgilandi. Xususan, lug'atlarda «etn.», «esk.», «din.» kabi maxsus qisqartmalar bilan berilgan yoki mazmunan xalqning urf-odati, marosimlari va turmush tarzini ifodalovchi birliklar alohida saralab olindi. Tadqiqotning metodologik asosi shundan iboratki, unda nafaqat miqdoriy o'sish, balki davr mafkurasi va ilmiy yondashuvlarning lug'at maqolalaridagi aks etishi sifat jihatdan tahlil qilindi. Lug'atlardagi etnoeksemalarning umumiy so'zlikka nisbati foiz ko'rsatkichlari orqali aniqlanib, leksikografik takomillashuv darajasi o'zaro qiyoslandi[2].

O'zbek leksikografiyasi tarixida 1981-yilda nashr etilgan ikki jildli «O'zbek tilining izohli lug'ati» dastlabki nazariy asoslangan manba bo'lishiga qaramay, unda etnomadaniy qatlamning aks etishi muayyan cheklovlarga duch kelgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ushbu lug'atda mavjud 60 000 ga yaqin so'zlikdan bor-yo'g'i 176 tasi etnoeksema yoki etnoeksematik ma'no ifodalovchi birliklar sifatida qayd etilgan bo'lib, bu umumiy leksikaning atigi 0,29 % ini tashkil etadi. Bunday past ko'rsatkichning sababi o'sha davrdagi hukmron mafkura bilan bog'liq bo'lib, ko'plab milliy-ma'naviy tushunchalarning lug'at tarkibiga kirishiga

[1] O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikki jildli. J. I–II. / Z.M.Ma'rufov tahriri ostida. – Toshkent: Rus tili nashriyoti, 1981.
[2] O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli. J. I–V. / A.Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.

yo'l qo'yilmagan. Mustaqillikdan so'ng yaratilgan besh jildli yangi nashrda (2006-2008) so'zlik hajmi 80 000 taga yetkazildi va o'zbek leksikografiyasi yangi bosqichga ko'tarildi. Biroq, qiyosiy tahlillar kutilmagan natijani ko'rsatdi: yangi lug'atda etnoeksemalar soni 200 taga yaqinlashgan bo'lsa-da, ularning umumiy so'zlikdagi ulushi 0,25 % ga tushib qolgan[1].

Bu holat yangi lug'atda miqdoriy o'sish bo'lgani bilan, etnomadaniy leksikani tizimli tasniflash va belgilashda hali ham eskirgan yondashuvlar saqlanib qolganini tasdiqlaydi. Shunga qaramay, besh jildli lug'atning o'ziga xos yutuqlari ham mavjud. Xususan, unda avvalgi nashrda «diniy» yoki «eski» deb tamg'alangan ko'plab etnoeksemalarga xolis ilmiy yondashuv bilan yondashilgan, arab, fors va umumturkiy qatlamga mansub so'zlarga batafsil etimologik ma'lumotlar berilgan. Qiyosiy tahlil natijasida har ikki lug'atda takrorlanuvchi umumiy etnoeksemalar bilan bir qatorda, faqat biriga xos bo'lgan (birida bor, ikkinchisida yo'q) o'ziga xos leksik qatlamlar ham aniqlandi. Bu esa etnoeksemalarning lug'atlardagi o'rni faqat so'z boyligi bilan emas, balki davrning leksikografik talablari va siyosiy-ma'naviy iqlimi bilan ham to'g'ridan-to'g'ri bog'liqligini isbotlaydi.

1-jadval. **Ikki va besh jildli izohli lug'atlarda o'zaro farqlanuvchi etnoeksemalar namunalari**

Ikki jildli izohli lug'atga (1981) xos etnoeksemalar	Besh jildli izohli lug'atga (2006-2008) xos etnoeksemalar
Kir (marosim ma'nosida)	Badik II (folklor-etnografik tushuncha)
Tanga-sochiq (urf-odat buyumi)	Darrasoldi (marosimiy an'ana)
Tutatmoq (is chiqarish marosimi)	Kelinko'rdi (marosim)
Chachvon (kiyim-etnografizm)	Obxudoyi (marosimiy tadbir)
Chil-chil (marosimiy tushuncha)	Sabzito'g'rar (marosim oldi tadbiri)
Qora kiymoq (azadorlik odati)	Totem (etnik-e'tiqodiy tushuncha)
Sut haqi (marosimiy to'lov)	Totemizm (etnik-e'tiqodiy tushuncha)
Unashtirish (oilaviy marosim)	Uchoq (etnografik buyum/joy)

Jadvalda keltirilgan etnoeksemalarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, har ikki lug'at o'z davrining leksikografik qarashlari va ijtimoiy talablaridan kelib chiqqan holda o'ziga xos so'zlik tarkibiga ega. 1981-yilda nashr etilgan ikki jildli lug'atda «Kir», «Chachvon», «Qora kiymoq» kabi birliklarning mavjudligi, garchi umumiy miqdor kam bo'lsa-da, kundalik turmush va kiyim-kechak bilan bog'liq fundamental etnografizmlarni qamrab olishga harakat qilinganidan dalolat beradi. Biroq, bu lug'atda aksariyat etnoeksemalar «eskirgan» yoki «tarixiy» degan belgilar ostida berilgani o'sha davr mafkuraviy bosimidan nishonadir.

Besh jildli yangi izohli lug'atda esa etnoeksemalarning tabiati sezilarli darajada o'zgargan. Xususan, «Badik II», «Darrasoldi», «Obxudoyi» kabi birliklarning kiritilishi o'zbek xalqining milliy-ma'naviy merosiga, xususan, folklor va qadimiy e'tiqodlar bilan bog'liq marosimlarga nisbatan yondashuvning ijobiy tomonga o'zgarganini ko'rsatadi. Ayniqsa, «Totem» va «Totemizm» kabi ilmiy-etnografik terminlarning lug'atdan o'rin olishi, yangi nashrning nafaqat umumiste'moldagi so'zlarni, balki maxsus etnologik tushunchalarni ham qamrab olganidan, ya'ni so'zlikning ilmiy ko'lami kengayganidan dalolat beradi[2].

Shunga qaramay, tahlil jarayonida aniqlangan eng muhim jihat shundaki, ayrim jonli etnoeksemalar bir lug'atda mavjud bo'lsa, ikkinchisida tushirib qoldirilgan. Masalan, ikki jildli lug'atda qayd etilgan ba'zi marosim nomlarining yangi nashrda uchramasligi yoki aksincha holatlar, o'zbek leksikografiyasida etnoeksemalarni tanlab olish va ularni markalashda hamon yagona, tizimli mezon ishlab chiqilmaganligini ko'rsatadi. Bu esa kelajakda yaratiladigan izohli lug'atlarda etnomadaniy leksikani alohida «mikrotizim» sifatida tadqiq etish va ularni to'liqroq aks ettirish zaruriyatini tug'diradi[3].

O'zbek tilining ikki va besh jildli izohli lug'atlari ustida olib borilgan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, leksikografik manbalar xalqning etnomadaniy hayotini aks ettiruvchi asosiy ko'zgu hisoblanadi. Tadqiqot natijasida aniqlanishicha, 1981-yildagi ikki jildli lug'atda etnoeksemalarning ulushi (0.29%) o'sha davrdagi siyosiy-mafkuraviy cheklovlar tufayli juda past bo'lgan. Mustaqillik davri mahsuli bo'lgan besh jildli lug'atda esa so'zlik hajmi oshgan bo'lsa-da, et-

[1] Madvaliyev A. O'zbek leksikografiyasi sahifalaridan. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – 192 b.
[2] Nematov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 128 b.
[3] Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. – Toshkent: Universitet, 2000. – 600 b.

noeksemalarning foiz ko'rsatkichi (0.25%) deyarli o'zgarishsiz qolgan. Bu holat o'zbek leksikografiyasida milliy-maishiy terminologiyani tizimlashtirish, ularga maxsus «etnografik» belgi berishda hamon yagona metodologik yondashuv yetishmayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, tahlillar shuni tasdiqladiki, yangi tahrirdagi lug'atda diniy va marosimiy tushunchalarga nisbatan ijobiy ilmiy yondashuv shakllangan, etimologik izohlar kengaytirilgan. Biroq, ayrim jonli etnoeksemalarning lug'atdan lug'atga o'tishda tushib qolishi yoki yetarli darajada qamrab olinmasligi kelajakda «O'zbek tili etnografik lug'ati» kabi maxsus leksikografik manbalarni yaratish zaruriyatini ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda, izohli lug'atlarni takomillashtirishda etnoeksemalarning nafaqat miqdoriga, balki ularning xalq ma'naviy hayotidagi semantik yukini to'g'ri interpretatsiya qilishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Rezyume.Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan leksikografiya va etnolingvistika masalalari tadqiq etiladi. Maqolaning asosiy diqqat markazida o'zbek tilining turli davrlarda nashr etilgan umumiy izohli lug'atlarida etnoeksemalarning berilishi va ularga berilgan tavsiflarning qiyosiy tahlili turadi. Tadqiqot davomida milliy-madaniy bo'yoqdorlikka ega bo'lgan leksik birliklarning lug'at maqolalaridagi o'rni, ularning ma'no ko'lamini yoritishda qo'llanilgan metodlar va izohlardagi o'xshash hamda farqli jihatlar ilmiy nuqtai nazardan baholanadi. Shuningdek, etnoeksemalarning lug'aviy interpretatsiyasida yuzaga keladigan leksikografik muammolar va ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Resume. This article explores the crucial issues of lexicography and ethnolinguistics within Uzbek linguistics. The primary focus of the research is a comparative analysis of the presentation of ethnolexemes in general explanatory dictionaries of the Uzbek language published in different periods. The study scientifically evaluates the place of lexical units with national-cultural connotations in dictionary entries, the methods used to clarify their semantic range, and the similarities and differences in their definitions. Furthermore, the article proposes suggestions for improving the lexicographical interpretation of ethnolexemes and addressing emerging challenges in this field.

Резюме. В данной статье исследуются актуальные вопросы лексикографии и этнолингвистики в узбекском языкознании. Основное внимание уделяется сравнительному анализу представления этнолексем в общих толковых словарях узбекского языка разных периодов издания. В ходе исследования научно оцениваются роль лексических единиц с национально-культурной спецификой в словарных статьях, методы, использованные для раскрытия их смыслового диапазона, а также сходства и различия в их толкованиях. Кроме того, выдвигаются предложения по совершенствованию лексикографической интерпретации этнолексем и решению возникающих проблем в данной области.